

“Omad Daryo 2” MCHJ va Toshloq tumani maktabgacha ta’lim bo’limi o’rtasidagi Oziq ovqat mahsulotlarini(to’qqiz turdag) sotib olish bo'yicha 10-yanvar 2022-yil kuni tuzilgan 11 -sonli shartnomaga

YURIDIK XULOSA

Shartnoma miqdori: umumi baxosi 20 705 000 (Yigirma million etti yz besh ming) so'm.

Toshloq tumani Yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuristkonsulti Q.Asqarov yuqoridagi shartnoma yuzasidan xuquqiy ekspertiza o'tkazdim. Huquqiy ekspertiza O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi “Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonunning 21-moddasiga asosan o'tkazildi.

Shartnomada ko'rsatilgan munosabatlarning amaldagi qonun normalari talablariga mos kelishi, shartnoma shartlarining qonun xujjatlari talablariga mos kelishi, shartnoma bo'yicha taraflarning javobgarligi me'yori va nizolarni xal etish tartibi qonun xujjatlari talablariga mos kelishi huquqiy ekspertizaning predmeti xisoblanadi.

Huquqiy ekspertiza o'tkazilayotgan vaqtida O'zbekiston Respublikasining amalda bo'lgan hamda yuridik xizmat uchun foydalanish mumkin bo'lgan barcha qonun xujjatlari o'r ganib chiqildi.

Huquqiy ekspertiza natijasida quyidagilar aniqlandi:

Shartnoma ko'rsatilgan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi “Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonuni xamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi.

Shartnoma shartlari O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi “Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonunning 6,7,15-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-385-moddalari talablariga mos keladi.

Shartnoma bo'yicha taraflarning javobgarligi me'yori va nizolarni hal etish tartibi O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi “Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonunning 24-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 324-339-moddalari talablariga mos keladi.

Yuqoridagilarga asosan, mazkur shartnoma qonun xujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Markazi bosh yuristkonsulti



Q.Asqarov